

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

MAY | 2023

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиёв Иқбол
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Ходжаметова Гулчира
Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Абдувоҳидов Фахриддин
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САҢЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

ODILJON Nazarov

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7911693>*

О'ЗБЕК ВА УЙГ'УР ХАЛQLARI MILLIY MUSIQA SAN'ATIDA RUBOB CHOLG'U IJROCHILIGI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milliy musiqa san'atida o'zbek va uyg'ur rubob cholg'u ijrochilik san'atining umumiylik va o'ziga xosliklari haqida so'z boradi. Unda ijrochilikning barcha jihatlari o'zaro taqqoslash, qiyoslash tamoyili asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: rubob, ijrochilik, bastakor, sozanda, musiqiy bezaklar, milliy musiqa, ijro uslublari.

УЗБЕКСКИЙ И УЙГУРСКИЙ НАРОДЫ В НАЦИОНАЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОЕ ИСПОЛНЕНИЕ РУБОБ

ОДИЛЖОН Назаров

*Профессор Государственной Консерватории Узбекистана
заслуженный артист Республики Узбекистан*

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится об общих чертах и особенностях исполнительского искусства узбекского и уйгурского инструмента рубоб в национальном музыкальном искусстве. В нем раскрываются все стороны деятельности по принципу взаимного сопоставления и сравнения.

Ключевые слова: рубоб, исполнение, композитор, музыкант, мелизмы, национальная музыка, стили исполнения.

UZBEK AND UYGHUR PEOPLES IN NATIONAL MUSICAL ART RUBOB INSTRUMENTAL PERFORMANCE

ODILJON Nazarov

*Professor of the State Conservatory of Uzbekistan
Honored Artist of the Republic of Uzbekistan*

ANNOTATION

This article talks about the commonalities and peculiarities of Uzbek and Uyghur rubob instrument performance art in national music art. It reveals all aspects of performance based on the principle of mutual contrast and comparison.

Keywords: rubob, performance, composer, musician, musical decorations, national music, performance styles.

Tarixiy manbaalardan ma'lumki, musiqa ijrochiligi o'zbek va uyg'ur xalqlarida ham boshqa ko'pgina xalqlarda bo'lgani kabi qadimdan xalqning to'y-u tantanalarida, xalq sayillari va bayramlarida yakka holda, turli katta-kichik guruhlar ko'rinishida shakllanib, keyinchalik hukmdorlar saroylarida maxsus jamoalar shaklida rivojlanib, takomillashib, uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan holda bizgacha o'zining hozirgi mukammal ko'rinishida yetib kelgan.

XX asrning boshlarida jahondagi o'zgarishlar ko'pgina mamlakatlar qatorida o'zbek va uyg'urlar madaniyatida ham katta islohotlarga sabab bo'ldi. Boshqa sohalar qatorida musiqa san'atida ham birmuncha rivojlanishlar ko'zga ko'rina boshladi. Jumladan, bastakorlar tomonidan zamonaviy kuy-qo'shiqlarning ijod etilishi ijrochilik san'atining yangi qirralarini ochib berish imkoniyatlarini yaratdi. Ko'pgina cholg'u asboblarda talqin etishning o'zgacha imkoniyatlari vujudga keldi.

Uyg'ur xalqi orasida qashqar rubob cholg'usi juda keng tarqalgan bo'lib, bu xalqning quvonch-u hasratlari, orzu-armonlarini ko'rsatib bera oladigan va musiqada milliylikni yaqqol ifodalab bera oladigan cholg'ulardan hisoblanadi. Uyg'ur qashqar rubobi ijrochilik san'atida yakka holdagi ijrochilik bilan bir qatorda, turli xildagi ansambl va orkestrlarda ham keng qo'llanilib, o'zining texnik imkoniyatlari yuqoriligi bilan ajralib turadi.

O'tgan asrning 20-30-yillarida uyg'ur shaharlaridan Urumchi, G'ulja, Qashqar, Xo'tan va boshqa shaharlarda turli san'at to'garaklari tashkil etila boshladi. Masalan, "Sanoyi nafisa" kabi to'garaklarning paydo bo'lishi cholg'u ijrochiligining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi [1, B.9].

Bu yerda yoshlarga ko'zga ko'ringan musiqa darg'alarining bilim berishi kelajakda uyg'ur musiqasi yetuk ijrochilarining yetishib chiqishi uchun zamin yaratdi. Shu davrgacha uyg'urlarda Toshvoy, Ro'zak boshi, Ovut ravop, Dovut Ovut Parhat Davut, Muhammad Sovut, Muhammad Tenun Sumbum, Rayhongul Hayit, Iminjon va Abdukarim kabi mashur rubobchi sozandalar yetishib chiqqan bo'lsa, 1967-yilda O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshida tashkil etilgan Uyg'ur ansamblida Ro'zioxun Odilov va Ablulahad Qurbon kabi rubobchilar faoliyat olib borishgan.

O'zbekistonda esa bir qancha folklor etnografik absambllar, xalq teatrlarining tuzilishi, Turkiston xalq konservatoriyasi va ko'plab turli ijodiy jamoalarning shakllanishi, musiqa va san'at o'quv yurtlarining tashkil etilishi, musiqiy ta'limning yo'lga qo'yilishi, o'zbek musiqasining tadqiq qilinishi, ularni yozib olinishi kabi ko'plab ishlar, musiqa va ijrochilik san'atining yanada rivojlanishiga, taraqqiy topishiga turtki bo'ldi [2, B.27].

O'zbekistonda qashqar rubob ijrochiligi mashhur rubobchi, bastakor, Muhammadjon Mirzayev faoliyati bilan bog'liq. 1936-yilda Farg'ona viloyatining Shohimardon qishlog'ida o'tkazilgan sayilda M.Mirzayev qashqarlik bir sozandadan rubob sotib oladi va toshkentlik Usta Usmon Zufarov bilan o'sha rubobni qayta ishlab, takomillashtirish natijasida hozirgi ko'rinishdagi o'zbek rubobini yaratgan [3, B.8].

Yangi yaratilgan bu cholg'u tez orada ommalashib, o'zbekning har bir xonadoniga kirib bordi. Ayniqsa M.Mirzayev tomonidan rubob uchun maxsus yaratilgan go'zal asarlar bu cholg'uning o'zbek musiqa ijrochilik san'atida mustahkam o'ringa ega bo'lishi bilan birga A.Boboxonov, S.Taxalov, Sh.Mirzayev, T.Avazov, T.Rajabiy, R.Qosimov, O.Nazarov, Sh.Nuriddinov, M.Voisov, R.Abdiazimov kabi rubobchi sozandalarning yetishib chiqishiga zamin bo'ldi.

Yuqorida aytib o'tilganidek o'zbek va uyg'ur rubob ijrochiligining barcha jabhalarida umumiylik va o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Bular: **cholg'u asboblari, ularning yasalishi, cholg'ularga ishlatiladigan materiallar, ijrochilik, ijro uslublari, musiqiy bezaklar** va hokazolar.

Cholg'ularning kelib chiqishidagi o'xshashlik bu ikki xalq yashash tarzining bir-biriga juda yaqinligida bo'lsa kerak. Ularning yasalishi, shaklining o'xshashligi, ularga ishlatiladigan yog'och materiallari ham deyarli bir xil. Har ikki xalq hunarmandchiligida sozgar ustalar tomonidan ruboblar kosasi tut, yong'oq daraxti yog'ochidan, dastasining o'rik yog'ochidan ishlanishi, farqi esa uyg'urlarda ayrim hollarda, olma, olcha, qizil daraxti yog'ochlaridan ham ishlanishida ko'zga tashlanadi.

Hatto mizrob (mediator) ham o'xshash va farqli ko'rinishda yasaladi. O'zbekistonda mediator asosan plastmassa yoki ebonitdan ikki xil ko'rinishda, uyg'urlarda esa uch xil ko'rinishda, zamonaviy ijrochilikda qashqar rubobida plastmassadan, qadimdagi kabi Qo'ychi rubobda mol shoxidan, Do'lon rubobida esa yog'ochdan yasalgan mizroblardan foydalaniladi. Cholg'ularga oid bo'lgan o'ziga xosliklardan yana biri bu cholg'ularning bezalishi. Rubobning shoxlari va dasta hamda quloqlaridagi naqshlar ularning materiallari bir-biridan anchagina farq qiladi. O'zbek ustalarining bezaklari bir muncha kamtarroq va qat'iy bir ko'rinishida bo'lsa, uyg'ur sozlarida naqsh, bezaklarning juda rivojlanganligi, sadaf va plastmassa materiallaridan keng foydalanilishini ko'rishimiz mumkin. Bu cholg'ular deyarli bo'sh joy qoldirmasdan bezatiladi.

Shuningdek, cholg'ular turlarida katta o'ziga xosliklar mavjud. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan o'zbek ruboblarining qayta ishlangan, takomillashtirilgan turlari asosan ko'p ovoqli milliy orkestr tarkibini shakllantirish maqsadida yaratilgan bo'lib, asosan bir-biriga yaqin va o'xshash. Ulardan rubob prima cholg'usi yaqqol o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu cholg'u torlari, diapazoni, tovush xususiyatlari, ijro imkoniyatlari qashqar rubobidan umuman farqlanib turadi. Uyg'urlarda esa rubobning 6 xil turi mavjud bo'lib, ular o'ziga xos tarzda tovush xususiyatlariga, shakliga, ijro imkoniyatlarida ega. Bu cholg'ular hattoki muayyan muqomlarni, alohida bir xalq ashulalari ijrosida qo'llanishga ixtisoslashgan.

Ham o'zbek ijrochiligida ham uyg'ur ijrochilida barcha shahar va tumanlarda faoliyat olib borayotgan ana'naviy ansambllarda rubob cholg'usi asosiy cholg'ulardan biri sifatida keng qo'llanib kelinadi. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilikda ham xalq kuylari, maqom va muqom asarlari, shuningdek, bastakorlar asarlari keng ko'lamda ijro etishini kuzatishimiz mumkin.

O'z navbatida har ikki xalq cholg'u ijrochiligida milliy cholg'ular orkestr ijrochiligi anchagina taraqqiy topgan bo'lib, ularning ijro dasturlarida o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. O'zbekistonda orkestr ijro dasturlarida jahon kompozitorlari asarlari ijrosi ancha taraqqiy etganligini ko'rish mumkin. Uyg'ur orkestrlarida esa asosiy urg'u uyg'ur kompozitorlari asarlari ijrosiga qaratilganini ta'kidlash joiz.

Ijro uslublarida *yakka zarb*, *tremolo* kabi shtrixlar ijrosida umumiylik mavjud bo'lsada, aynan ijro uslublarida katta o'ziga xosliklar yuzaga chiqadi. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, bu asosan milliy bezaklar ijrosidir. Sababi milliy asarlar va kuylar milliylikiga shu bezaklar orqali amalga oshirilishi sir emas.

O'zbek ijrochiligida *nolish*, *kashish*, *bidratma*, *naqshlag* kabi bezaklarning ijro uslublari, xususan, chap qo'l barmoqlari harakatlari, torlarni sezish, ko'tarish, shuningdek, bu bezaklarni ijro etish uchun qo'llaniladigan applikatura o'ziga xoslik kasb etadi. O'ng qo'l holatlarida esa, zarblarning o'ziga xosligi, ularning kuchi, aksent, stakatto, shuningdek, tovush kuchini boshqarish masalalari yoki tremolo shtrixining turlari, xususiyatlari o'ziga xos.

Uyg'ur qashqar rubobining torlari bittadan bo'lib, ular ikkinchi oktava *do* notasiga, qolgan oltita tor birinchi torga nisbatan kvarta intervali bo'yicha sozlanishi sababli rubob tovushining baland, keskinroq, jarangdor, shu bilan birga o'ziga xos mayinlik kasb etuvchi tovush chiqarishini alohida ta'kidlash joiz. Ayniqsa, qashqar rubobi, do'lon rubobi va qumul ruboblarida birinchi va ikkinchi torlardan boshqa torlarning rezonator sifatida akkordli tuzilmalarda ishlatilishi, hamda kuylarning turg'un pardalarida muayyan akkordlar hosil qilishi uyg'ur ijrochiligining yorqin ko'rinishi deyish mumkin.

Xalq cholg'ulari turlarining xilma-xilligi, ularning son jihatdan ko'pligi dunyo mamlakatlarida kam uchraydigan holat. Bu borada ham o'zbek va uyg'ur xalqlari bir-biriga o'xshash ya'ni, uyg'ur cholg'ularining xilma-xilligi, rang-barangligi, milliy cholg'ularining ko'pligi xuddi o'zbek xalqi milliy cholg'ulari kabidir. Lekin shunday bo'lsada uyg'ur ruboblarining har bir turi alohida bo'lib, muayyan vazifani bajarishi, yoki ma'lum ijrolarda ishlatilishi bilan o'zbek ruboblaridan farq qiladi.

O'zbek rubob ijrochiligida milliy bezaklarning turli-tumanligi, shtrixlar rang-barangligi, ayniqsa, tremolo shtrixining Toshkent-Farg'ona, Buxoro-Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo ijro yo'nalishlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini alohida e'tirof etish joiz. Uyg'ur ijrochiligida zarblar kuchining o'ziga xosligi, ayniqsa tremolo shtrixining jarangdorligi juda mayda, tiniq, turli ritmik ko'rinishlardagi o'ziga xos ajoyib ijro uslubini ko'rish mumkin.

Uygʻur ijrochiligining eng yorqin ijro uslublaridan biri bu chap qoʻl harakatlari hisoblanadi. Bunda barmoqlarning rubob dastasi boʻylab silliq silanishi, bezak va qochirimlar ijrosida yengillik bilan maʼlum intervalda harakatlanishi, yaʼni oʻziga xos silanishi bu cholgʻuda milliy musiqalarni yorqin jaranglashiga olib keladi.

Yuqorida aytib oʻtilganidek, oʻzbek milliy cholgʻu ijrochiligi sanʼatida rubob cholgʻusining keng ommalashishida mohir sozanda va bastakor, ustoz sanʼatkor M.Mirzayevdan keyin bu cholgʻuning taraqqiyoti koʻplab zamonaviy sozandalar ijodi bilan chambarchas bogʻliq. Bu sozandalardan butun hayoti davomida maqom yoʻnalishida ijod qilib uning targʻibotiga salmoqli hissa qoʻshgan Sh.Mirzayev, A. Boboxonov, T.Rajabiy kabi oʻnlab ijodkorlarni sanab oʻtish mumkin. Ayniqsa, maqom ijrochiligida ushbu cholgʻuning mustahkam mavqega erishishida professor S.Taxalovning ilmiy izlanishlari, professor R.Qosimovning ilmiy-uslubiy ishlari va ular yaratgan ijrochilik maktabi vakillarini taʼkidlab oʻtish joiz. Bu ishlarda maqom asarlarini xromatik tovushqatorga ega boʻlgan cholgʻuda toʻlaqonli ijro etishning nazariy asoslari ustida, uning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish borasida izlanishlar olib borilgan. Mazkur izlanishlar natijasi oʻlaroq nashr yuzini koʻrgan bir qancha oʻquv qoʻllanma va darsliklar bugun yoshlarga maqom ijrochiligi sirlarini oʻrgatishda asosiy vositalardan boʻlib xizmat qilmoqda.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, har qanday xalqning musiqa sanʼati ham bugungi globallashuv jarayonlarida bevosita oʻzaro aloqada boʻlishi tabiiy. Ushbu maqolada uzoq tarixdan bir-biri bilan juda yaqin ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqada yashab kelgan ikki xalqning musiqa sanʼati haqida fikr yuritdik. Bu xalqlarning ijrochilik sanʼatidagi bunday aloqadorlikning natijasini har ikki xalq musiqa sanʼatida oʻz ifodasini topganini koʻrish mumkin. Yaʼni oʻzbek musiqasida uygʻur musiqasi elementlari va aksincha. Shu bilan birga, uygʻurlarda “Dutor bayoti”, “Jonon”, “Dilxiroj”, “Tanavor”, “Yolgʻiz”, “Qorategin”, “Doʻloncha”, “Aliqambar” kabi bir qancha oʻzbek musiqasi namunalari mashhur boʻlsa, oʻzbeklar orasida ham “Gulmaram”, “Otush”, “Guloyim”, “Tunu-kun” kabi asarlar ommalashgan.

Tarixan mavjud boʻlgan ushbu aloqalar bugun musiqiy taʼlim sohasida oʻzining yangi zamonaviy bosqichida davom etmoqda desak oʻrinli boʻlar. Soʻnggi yillarda Oʻzbekiston davlat konservatoriyasi hamda Y.Rajabiy nomidagi milliy maqom sanʼati institutida uygʻur talabalarining tahsil olishi, yoki Urumchi sanʼat institutida oʻzbek mutaxassislarining faoliyat olib borayotganligi bu ikki qardosh xalqning madaniy aloqalarini yanada mustahkamlashda, pirovardida esa ikki xalq musiqa sanʼatining taraqqiy topishida muhim omillardan biri boʻlib xizmat qiladi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. O.Nazarov, Abduvali Abduqayum. “Rubob ijrochiligi” T., 2013
2. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., “O‘qituvchi” 1995
3. O.Nazarov. “Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti” T., 2008

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz